ISSN 2181-371X
SJIF: 5.305 VOLUME 4 ISSUE 34
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

MAQOMLARDA SO‘ZNING AHAMIYATIGA BIR NAZAR

Xaydarov Xumoyun Samijonovich
Yunus Rajabiy nomidagi
“O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti”
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maqom san’ati tarkibida so’z va ohang mushtarakligi xususida so’z yuritiladi. Bu ikki san’at turini maqomlardagi o‘rnini taqqoslash yoki bir-biridan ustun jihatlarini ko‘rsatish emas, balki ularning bir-birini to‘ldirish va shu orqali maqom san’atining rivojlanish, rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni imkon qadar yoritishdir. Maqom san’atining rivojlanish bosqichi (bu yerda butun turkum, shakl, sho‘ba yoki xatlar bo‘yicha emas, aynan o‘sha she’r va g‘azallar ta’sirida o‘zgargan taktlar, taktlar soni, ohanglar, ohanglarning melodik yo‘li nazarda tutilmoqda) jarayonida she’riyatning bevosita o‘rni haqida fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar*: Maqom, lad, aruz, g‘azal, she’riyat, ohang, musiqa, ijro, usul, nota nashr, interval, takt.*

ВЗГЛЯД НА ЗНАЧЕНИЕ СЛОВА В МАКОМАХ

Хайдаров Хумоюн Самижонович
имени Юнуса Раджаби
"Узбекский национальный институт
музыкального искусства"
старший преподаватель

Аннотация: *В данной статье рассматривается взаимосвязь слова и мелодии в искусстве макома. Цель статьи не в сравнении роли этих двух видов искусства в макомах или демонстрации превосходства одного над другим, а в освещении их взаимодополняемости и, таким образом, максимально полном отражении изменений, произошедших в процессе развития искусства макома. В статье излагаются мысли о непосредственной роли поэзии в процессе развития искусства макома (здесь имеются в виду не весь цикл, форма, раздел или письма, а именно такты, количество тактов, мелодии и их мелодический путь, изменившиеся под влиянием стихотворений и газелей).*

ISSN 2181-371X
SJIF: 5.305 VOLUME 4 ISSUE 34
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

Ключевые слова: *Маком, лад, аруз, газель, поэзия, мелодия, музыка, исполнение, усуль, нотное издание, интервал, такт.*

ВЗГЛЯД НА ЗНАЧЕНИЕ СЛОВА В МАКОМАХ

Khaidarov Khumoyun Samijonovich
Yunus Rajabi
Senior Lecturer at the
"Uzbek National Institute of Musical Art"

Abstract: *This article examines the relationship between text and melody in the art of maqom. The aim of the article is not to compare the roles of these two art forms in maqoms or to demonstrate the superiority of one over the other, but to illuminate their complementarity and thus provide the fullest possible reflection of the changes that have occurred in the development of maqom art. The article presents thoughts on the direct role of poetry in the evolution of maqom art (referring not to the entire cycle, form, section, or letters, but specifically to the measures, number of measures, melodies, and their melodic progression, which have changed under the influence of poems and ghazals).*

Keywords: *Maqom, mode, aruz, ghazal, poetry, melody, music, performance, usul, musical notation, interval, rhythm.*

She’riyat va musiqa har doim birgalikda rivojlangan. Biri ikkinchisini to‘ldirish bilan birga hamohang yaxlitlikni keltirib chiqargan. Maqomlarni ijro etishda turli vazndagi she’r, g‘azallardan foydalanilganligi va ijrochilar o‘z ijro mahoratlari darajasida ushbu ishni amalga oshirganliklarini turli manbalar hamda asosli dalillar orqali xabardor bo‘lishimiz mumkin. Bu borada maqomshunos alloma I.Rajabovning quyidagi fikrlari asoslidir. “Maqomlarning sho‘balari aytim musiqa asarlari ekan, bunda shubhasiz so‘z (she’r matni) ham muhim o‘rin tutadi. Shashmaqom yo‘llariga atilgan she’rlar asosan ishqiy - lirik mazmundagi va nasihatomuz asarlar bo‘lib kelganini aytib o‘tish lozim. Shuning uchun ularni muayyan bir so‘z (she’r) bilangina aytiladi, deyish noto‘g‘ri bo‘ladi. Ma’lum maqom ruhi, g‘oyasi, mazmuni va she’r o‘lchovi mos keladigan har qanday she’riy asar tushirilib, ijro etila bergan”[1].

[1] Rajabov I.. “Maqomlar”. T. 2006 y. 208-bet.

Ushbu fikrni keltirishdan asosiy maqsad shuki, bu ikki san'at turini maqomlardagi o'rnini taqqoslash yoki bir-biridan ustun jihatlarini ko'rsatish emas, balki ularning bir-birini to'ldirish va shu orqali maqom san'atining rivojlanish, rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan o'zgarishlarni imkon qadar yoritishdir. Maqom san'atining rivojlanish bosqichi (bu yerda butun turkum, shakl, sho'ba yoki xatlar bo'yicha emas, aynan o'sha she'r va g'azallar ta'sirida o'zgargan taktlar, taktlar soni, ohanglar, ohanglarning melodik yo'li nazarda tutilmoqda) jarayonida she'riyatning bevosita o'rni haqida to'xtalib o'tdik.

O'zbek – tojik maqomlari ko'p davrlardan rivojlanib taraqqiy etib kelayotgan musiqiy merosdir. Ular hozirga qadar yaxlit "o'zbek – tojik Shashmaqomi" nomi bilan yuritilib kelinadi. Har ikki halqning o'z "Shashmaqom" nashrlari mavjud bo'lib, bu xol o'ziga yarasha muloxazalarni keltirib chiqaradi.

Bu ikki turli vaqtlarda nashr etilgan Shashmaqom to'plamlari tuzilish jixatidan o'xshashlikka ega. Lekin so'z, ohang va intonatsion hamda shunga o'xshash elementlar orqali bir – biridan farqlanadi. Bu bevosita maqom yo'llarida qo'llanilgan she'r va g'azallar bilan ham bog'liqdir. Maqomlarda she'rlarning ta'siri haqida maqomshunos I.Rajabov quyidagicha fikr yuritadi: "o'tmishda xonandalar ashulalarga mos she'r o'lchovlarini ma'lum uslub vositasi bilan aniqlaganlar (tan-tana-tananan). Agar turli vazndagi she'r bilan aytilgan maqom sho'balarida o'zgarishlar sodir bo'laveradi. Maqom yo'llariga aytilgan she'rlar o'zbek, tojik va ozarbayjon adabiyoti klassiklarining eng yaxshi asarlaridan tanlab olingan tojik va o'zbekcha g'azallar bo'lgan".[2]

Ma'lumki so'z bo'g'inlari misralarni, misralar baytlarni, baytlar esa maqom sho'balaridagi xatlarni, xatlar esa butun bir ashulani tashkil etadi (shu o'rinda eslatib o'tamiz maqomda ashulaning bir bayt bilan aytiladigan ikkita ashula jumlasi – *xat* deyiladi). Shunday ekan demak g'azaldagi bo'g'inlar maqomdagi ashula yo'lining taktlari, ya'ni ohanglar davomiyligiga ta'sir qiladi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki bir maqomga 2 xil g'azalni qo'shib aytish maqomdagi turli o'zgarish va farqlarni keltirib chiqaradi. Xuddi shunday holat o'zbek va tojik maqomlariga ham aloqadordir.

Biz ushbu ishimizda o'zbek – tojik shashmaqomlari tarkibiga kiruvchi Rost maqomining 1-gurux sho'balaridan "Saraxbori Rost"ni asos qilib oldik va bu ikki nashrlarni (1954 yil nashr qilingan tojik shashmaqomi (II tom) va Yu.Rajabiy tomonidan yozib olingan hamda 1967 yil nashr etilgan (II tom) o'zbek shashmaqomi) qiyoslab taqqoslashga xarakat qildik. Rost maqomining cholg'u bo'limi hamda

[2] Rajabov I. "Maqomlar". 209-bet. T.2006 yil.

ashula bo‘limidagi Saraxbori rost, butun taronalari va Talqinchai Navro‘zi Sabo Borux Zikriev, Talqini Ushshoq, Nasri Ushshoq va Savti Kalon M.Mullaqandov yozib olingan.[3] Tojikistonda esa Boboqul Fayziev, Shonazar Saxibov, Fazliddin Shaxobovlar o‘z ijrolarida notaga olib V.M.Belyaev tahriri ostida Shashmaqomning 5 jildini nashr ettirganlar (1950 – 1967 yillar davomida)[4].

Maqomlarda kuy va so‘z munosabatlari, bir nom bilan nomlangan turli halqlar maqomlarini qiyoslash I.Rajabov, T.G‘ofurbekov, O.Matyoqubov, Sh.Oyxo‘jaeva kabi maqomshunos, musiqashunoslar faoliyatlarida uchraydi.[5]

Saraxbori Rostga mos keladigan she’r vazni xususida I.Rajabov tomonidan keltirilgan ma’lumotni kiritishni lozim topdik. “Saraxbori Rostning takt o‘lchovi oddiy, ikki chorak bo‘lib, “Muzorei musammani ahrabi makfuf” deyilgan vazndagi she’rlar bilan ijro etiladi”[6].

Biz taxlil qilayotganimiz Saraxbiri Rost ham yuqoridagidek “Muzorei musammani ahrabi makfuf” vaznida Munis g‘azali bilan qo‘shib aytilgan:

Qildi ko‘zim qaro meni g‘am tiyra hol etib,
Xursheddek yorut ani arzi jamol etib.

Rukni:

Maf’ulu- failotu- mafoilu- foilun.

\- - v | - v - v | - - - v | - v -

I.Rajabovning “Maqomlar” kitobining ilova II qismida XIX asr shashmaqom she’riy matnlari keltirilgan bo‘lib u yerdagi Saraxbori Rostga tushirilib aytilgan she’rning vazni “*Muchtasi musammani maxbuni maqtu’i musabbat*” deb berilgan. Hofiz so‘zi bilan aytilgan she’rning dastlabki bayti quyidagicha:

Hofiz.

Bai nolai bulbul agar bo minnat saryorist,
Ki mo oshiqi zorem – o‘ kori mo zorist.

Rukni va vazni:

Mafoilun- foilotun- mafoilun- falon.

Tanan-tanan-tananan-tan-tanan-tanan-tan-ton

[3] “Shashmaqom” II-tom 202 bet. “G‘.G‘ulom nashriyoti”. 1967 y.
[4] O‘zbekiston milliy ensklopediyasi. 10-tom. 20-bet. “Davlat ilmiy nashriyoti”. T.2005 y.
[5] *Qarang*: I,Rajabov. “Maqomlar” 208-209, 247-248 betlar T.2006 y. T.G‘ofurbekov. “Saylanma 70”. T.2009 й. O.Matyoqubov. “Maqomot” 126-bet. 2004 y. Sh.Oyxo‘jaeva. “O‘zbekistonda zamonaviy musiqa muammolari” oliy o‘quv yurti ilmiy – amaliy konferensiya masalalari (to‘plam). “Shashmaqom taronalarida so‘z va kuy munosabatlari” maqolasi. 104-bet. T.2006 y.
[5] Rajabov I. “Maqom asoslari” T.1992 yil.san’ati muammolari” oliy o‘quv yurti ilmiy – amaliy konferensiya masalalari (to‘plam). “Shashmaqom taronalarida so‘z va kuy munosabatlari” maqolasi. 104-bet. T.2006 y.
[6] Rajabov I. “Maqom asoslari” T.1992 yil.

Yu.Rajabiy tomonidan yozib olinib nashr qilingan “Shashmaqom” 2 – jildida XIX asr qo‘lyozma to‘plamidan Rost maqomi tekstlari ilova sifatida kiritilgan. Vazni “Ramali musammani mahzuf”.

Hofiz.

Ba noli bulbul agar bo minkati sirri yorist,
Ki mo du oshiqi zoremu, kori mo zorist.

Rukni va vazni:

Foilotun- foilotun- foilotun- foilun.

- v - - | - v - - | - v - - | - v -

E’tibor berib qaraydigan bo‘lsak Hofiz so‘zi bilan keltirilgan ikki variantdagi she’r asli bir xil lekin so‘zlaridagi o‘zgarishlar ifodasi o‘laroq vaznlari bir – biridan farqlanadi. Bunga sabab turli vaqtda yozilgan nashrlar va ijrochilar tomonidan o‘zgartirilgan xolatda ijro tufayli bu xolat birozgina chalkashlikni keltirib chiqarishi mumkin (har bir ijrochi o‘z imkoniyati darajasida maqom so‘zlaridan foydalanishganini yuqorida keltirib o‘tgandik. Mana shu holat maqom notaga olinayotgan vaqtda o‘z ta’sirini o‘tkazgan bo‘lishi mumkin). Chunki aruzda nafaqat so‘z balki harfning ta’sirida ham vazn o‘zarishi mumkin. Bu ikki misolda esa ko‘plab o‘zgarishlar uchraydi.

Tojik maqomida esa Hofiz so‘zi bilan aytilgan g‘azal “Muzorei musammani axrabi makfufi mahfuz” vazniga to‘g‘ri keladi:

Hofiz.

Soqy ba nuri boda barafro‘z chomi mo,
Mutrib bigo‘, ki kori chahon shud ba komi mo.

Rukni:

Mafuvlu- foilotu- mafoiylu- foilun

- - v | - v - v | v - - v | - v -

Avvalo bu ikki nashrga e’tibor qaratar ekanmiz bu yerda bir mulohazali holatni kuzatishimiz mumkin bo‘ladi. Tojik maqomi nashrida ikkinchi xat o‘rnida birinchi xatning ***a)*** varianti keladi. Umumiy hisobda esa xatlarning soni oltitani tashkil etadi. Bu tojik maqomi nashridagi rim raqamlari bilan belgilangan belgilar asosidagi ma’lumot. Lekin nota misollarini taxlil qilish orqali shu xulosaga kelish mumkinki, tojik Saraxbori Rostda ham sakkiz xatdan iborat. Tojik maqomida birinchi va to‘rtinchi xatlardan so‘ng ularning variantlari keladi. Ular bir – biridan farqlanganligi (ya’ni xatlarning balandligi tovushlar bo‘yicha o‘rnashgan o‘rni, birinchi xatning varianti asosiy tovushdan kvinta oralig‘ida yuqorida, oltinchi xatning varianti seksta oralig‘ida pastda joylashganligi va ularning turli jihatlar bilan o‘zaro o‘xshash emasligi) sababli ularni ham alohida xat sifatida o‘zbek maqomiga mos tushadigan qimslarini qiyoslab

taxlil qilishga xarakat qildik. Saraxbori Rost o‘zbek variantida 8 xatdan iborat[7] va bu nashrda ham rim raqamlari orqali ko‘rsatilgan. Yana bir e’tiborli jihat o‘zbek variantida ham shunday xolat uchraydi. 4- xatdan keyin uning varianti kiritiladi va 6- xatga o‘tib ketadi. 4- xatda Namudi Segoh, uning ***a)*** variantida Namudi Ushshoq kiritilgan. Bu ikki xat bir xil so‘z orqali ijro etiladi. Shu o‘rinda nima uchun 5- xat kiritilmagan degan savol tug‘iladi. Ma’lumki maqomlarning avjida ijrochilarning ma’lum bir namudni qo‘shib aytishi yoki uni qisqartirib ijro etishini inobatga olgan holda ushbu variantni mustaqil xat sifatida qabul qilinmagan bo‘lishi mumkin. Shunday vaziyat 6- taktda ham mavjud. Dastlab 6- xat sifatida Namudi Uzzol, undan so‘ng uning varianti kiritiladi. Bu yerda 6- xatning variantini alohida xat sifatida olish mumkin. Notalarni qiyoslash davomida bir – biriga mos tushadigan xatlarni taxlil qilishga xarakat qildik. Quyidagi jadvalda o‘zbek maqomidagi xatlar tojik maqomidagi qaysi xatlar bilan mos tushishi haqida ma’lumot keltiriladi[8]:

O‘zbek Saraxbori Rost maqomidagi xatlar (rim raqamlarida)	Tojik Saraxbori Rost maqomidagi xatlar (rim raqamlarida)
I	I
II	Ia
III	II
IV	III
VI	IV
VIa	V
VII	VI
VII	VIa

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki bu ikki misol orqali bu maqomlarning bir – biri bilan bo‘lgan nomutanosibligi nafaqat kuyning xarakatlariga balki shu kuy ohanglarini ifodalovchi so‘z bo‘g‘inlarning ham ahamiyati bordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rajabov I. “Maqomlar” San’at nash. T.2006 y.
2. Rajabov I. “Maqom asoslari” T. 1992 y.
3. Ibrohimov O. “Maqom va makon”. T. 1996 y.
4. Matyoqubov O. “Maqomot” T. 2004 y.
5. Yunusov R.“Maqomlar xususida” Fan T.1992 y.
6. G‘ofurbekov T. “Saylanma”. T. 2009 y.
7. O‘zbek musiqasi tarixi. Tuzuvchi. T.Solomonova. T. 1981 y.

[7] Qarang: Rajabov I. “Maqomlar” 216-bet. T. 2006 y.
[8] Qo‘shimcha: ushbu maqomlar turli ijrochilar tomonidan turlicha talqin etilishi mumkin. Shunday hollarda yuqoridagi jadvalda o‘zgarishlar yuzaga kelishi mumkin.